

UDC: 341(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0002-5138-5700

## XALQARO ELEKTRON SAVDO MUNOSABATLARINI KOLLIZION-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI

**Yakubov Axtam Nusratilloevich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori  
e-mail: akhtam.yakubov@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada elektron savdo tushunchasi, jahondagi elektron savdoning umumiy holati va yuksalish dinamikasi, xalqaro elektron savdoni tartibga solishda xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tajribasi, bu sohada qo'llaniladigan kollizion normalar va ularning ahamiyatiga to'xtalgan holda, milliy qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, maqolada muallif tomonidan O'zbekistonda elektron savdoga asoslangan iqtisodiyotni yaratish, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning tashqi savdo munosabatlarida faol ishtirok etishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilinib, xalqaro amaliyot asosida takliflar ilgari surilgan. Elektron tijorat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonun normalarining ahamiyati amaliy misollar asosida tahlil qilinib, ularni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan. Shu bilan bir qatorda, elektron tijorat, kriptovalyuta aylanmasini tartibga soluvchi qoidalar xorijiy olimlar va xalqaro tajriba asosida tahlil etilib, milliy qonunchilikka kiritish zarurati asoslangan. Elektron tashqi savdo bitimlardan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga solish masalalari yuzasidan ilmiy bahs yuritilib, ilmiy-nazariy xulosalar ilgari surilgan. Muallif tomonidan transchegaraviy elektron tijorat masalalari xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari va mavjud xalqaro hujjatlar asosida tahlil etilib, bu borada milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan xulosalarga kelingan.

**Kalit so'zlar:** "lex voluntatus", business to business (B2B), business to customer (B2C), "lex venditoris", "lex loci contractus", "locus regit actum", "lex electronica", server joylashgan joy.

### КОЛЛИЗИОННО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ

**Якубов Ахтам Нусратиллоевич,**  
доктор философии по юридическим наукам,  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В статье анализируются понятие электронной коммерции, общее состояние и динамика роста электронной коммерции в мире, опыт зарубежного законодательства в регулировании международной электронной коммерции, коллизийные правила в этой сфере и их значение, даны предложения по совершенствованию национального законодательства. В статье также проводится научный анализ некоторых вопросов, негативно влияющих на создание в Узбекистане экономики, основанной на электронной коммерции, активное участие местных производителей товаров (услуг) во внешнеторговых отношениях, поэтому вносятся предложения, основанные на международной практике. На практических примерах проанализирована важность правовых норм, направленных на регулирование отношений электронной коммерции, и обоснована необходимость их совершенствования. Кроме того, правила, регулирующие электронную коммерцию, обращение криптовалюты, анализируются на основе мнений зарубежных ученых и международного опыта, исходя из необходимости включения их в национальное законодательство. Состоялась научная дискуссия по вопросам регулирования отношений,

возникающих в результате электронных внешнеторговых сделок, сделаны научно-теоретические выводы. Автор анализирует вопросы трансграничной электронной торговли на основе научно-теоретических взглядов зарубежных ученых и существующих международных документов, а также делает выводы о совершенствовании национального законодательства.

**Ключевые слова:** “lex voluntatus”, business to business (B2B), business to customer (B2C), “lex venditoris”, “lex loci contractus”, “locus regit actum”, “lex electronica”, местонахождение сервера.

## COLLISION REGULATION OF INTERNATIONAL ELECTRONIC COMMERCIAL RELATIONS

**Yakubov Akhtam Nusratilloevich,**

Researcher of Tashkent State University of Law,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

**Abstract.** The article analyzes the concept of e-commerce, the general state and dynamics of growth of e-commerce in the world, the experience of foreign legislation in the regulation of international e-commerce, conflict rules in this area and their significance, proposals for improving national legislation. Some issues that negatively affect the creation of an e-commerce-based economy in Uzbekistan, the active participation of local producers of goods (services) in foreign trade relations, and makes proposals based on international practice are scientifically analyzed in the article. The importance of legal norms aimed at regulating e-commerce relations is analyzed on the basis of practical examples and the need to improve them is justified. In addition, the rules governing e-commerce, crypto-currency circulation are analyzed on the basis of foreign scholars and international experience, based on the need to include them in national legislation. There is a scientific debate on the regulation of relations arising from electronic foreign trade transactions, and scientific and theoretical conclusions are made. The author analyzes the issues of cross-border e-commerce on the basis of scientific and theoretical views of foreign scientists and existing international documents and draws conclusions on the improvement of national legislation.

**Keywords:** “lex voluntatus”, business to business (B2B), business to customer (B2C), “lex venditoris”, “lex loci contractus”, “locus regit actum”, “lex electronica”, server location.

O'tgan davrda jahon iqtisodiy integratsiyalashuvda ishtirok etish, xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish, xalqaro savdo munosabatlarini raqamlashtirish, shu jumladan, elektron savdo munosabatlarini rivojlantirish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Savdo tahlillariga ko'ra, onlayn xarid qilish oldingi davr bilan taqqoslaganda 4 baravarga oshgan. Agar bu o'sish davaom etadigan bo'lsa, kelgusida 2025-yilga borib savdo kompaniyalarining kirim hajmi 15 %dan 25 %ga oshishi kutilmoqda. Elektron xalqaro savdolariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Amazon kompaniyasi o'tgan 6 yil davomida elektron mahsulot sotish hajmi yillik 458 milliondan 9,2 mlrd dollarga o'sgan [1].

2021-yilning sentabr holatiga Amazonda AQSh hududining o'zida 150,6 mln mobil aloqa foydalanuvchilari xarid amalga oshirgan. Hozirda Amazon do'konlari bo'ylab qariyb 2,5 mln sotuvchilar faol savdo amalga oshirmoqda.

O'zbekistonda elektron savdoga asoslangan iqtisodiyotni yaratish, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining tashqi savdo munosabatlarida faol ishtirok etishda salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim muammolarni qayd etib o'tish zarur.

Jumladan,

*birinchi*, elektron savdo sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan tizim bir vaqtning o'zida keng doiradagi aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun elektron tijoratdan foydalanish imkonini ta'minlamaydi;

*ikkinchi*, zamon talablariga javob bermaydigan, davlat boshqaruv organlarini cheklanmagan nazorat funksiyasiga asoslangan tovarlar eksport qilishning eskirgan byurokratik to'siqlari hali ham mavjud;

*uchinchi*, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirmaydi, bu esa Internet tarmog'i orqali mahsulotlarni xufiyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida "Xaridorgir mahsulotlar turlarini aniqlash, ularga bozor topish va sotish bilan xususiy treyding kompaniyalari shug'ullanishi, buning uchun esa savdo faoliyatini tartibga soladigan qonun loyihalari to'plamini ishlab chiqish lozim. Bu tashqi savdo bilan bir qatorda, ichki bozorga ham tegishli" [2] ekanligini alohida qayd etib o'tganlar.

So'nggi yillarda qayd etish zarurki, elektron tijorat sohasini isloh qilish, sohaga zamonaviy tendensiyalarni jalb qilishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini ham ta'kidlab o'tish zarur.

"Elektron tijorat to'g'risida", "Aloqa to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", "Axborotdan foydalanish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Telekommunikatsiyalar to'g'risida", "Pochta aloqasi to'g'risida", "Elektron raqamli imzo to'g'risida" va "Elektron hujjatlar aylanishi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 4-dekabrda 353-son qarori bilan "2016–2018-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlangan [3]. Mazkur ishlarni mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son qarori bilan 2018–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish Dasturi ham qabul qilingan.

Mazkur hujjatlar bilan xalqaro to'lov tizimi orqali to'langan holda butunjahon Internet tarmog'i orqali bitta invoys bo'yicha 5 ming AQSh dollarigacha tovar (xizmat)larni eksport qilishda xaridor bilan yozma shartnoma tuzish talab etilmaydi va barcha yuridik va jismoniy shaxslarga umumqabul qilingan xalqaro amaliyotga muvofiq hisobot yuritgan holda Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga axborot kiritmasdan hamda pochta aloqa xizmatlari ko'rsatish qoidalariga muvofiq yukning bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirmasdan amalga oshirishga ruxsat etila boshlandi [4].

Shu bilan birga, bugungi kunda, integratsiyalashtirilgan savdo va marketing platformalarini, internet-magazinlarni, yanada takomillashtirilgan to'lov tizimlarini, shuningdek elektron tijoratda logistika tizimini yaratish, tadbirkorlikni rivojlan-

tirish yo'lidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, xalqaro standartlarga yo'naltirgan holda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha tizimli muammolar saqlanib qolinmoqda.

Bu borada qabul qilinadigan elektron tijorat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonun normalari nafaqat ichki milliy qonunchilikda, balki boshqa chet el elementi bilan murakkablashgan ijtimoiy munosabatlarda ham asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Transchegaraviy elektron tijorat sohasida yuzaga keladigan munosabatlar chet el elementi bilan murakkablashadi va bu, o'z navbatida, ko'rib chiqilayotgan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladigan huquqni tanlash muammolarini tug'diradi.

Ushbu sohada tadqiqotlar o'tkazgan milliy va xorijiy olimlarning ishlariga e'tibor bersak, rivojlangan davlatlarda ushbu sohani tadqiq qilishni ilk namoyondalaridan biri sifatida M. Frendoni qayd etish zarur. U o'z tadqiqotida o'tgan asrning so'ngi yillarida elektron tijoratning amaldagi va kelgusi istiqbollari, ushbu sohani huquqiy tartibga solish masalalariga urg'u bergan [5, 1-b.]. M.C.A. Kelman va M. Chissick tomonidan ham e'lon qilingan ishda ushbu sohadagi amaliyotga uchrayotgan muammolar, sud amaliyoti hujjatlari tahlil qilingan [6, 4-b.] bo'lsa, 2002-yilda e'lon qilingan K. Henderson va A. Poulterning tadqiqot ishi ham ushbu sohadagi huquqiy muammolarni ilmiy jamoatchilikka taqdim etgan [7, 289-b.].

Axborot texnologiyalar ko'magida virtual olamda elektron shaklda o'rnatilgan munosabatlarga tatbiq qilinadigan huquqni tanlash ayniqsa, axborot bir necha soniya ichida davlat chegaralarini kesib o'tishi, ma'lumotlarga kirish bir vaqtning o'zida turli mamlakatlar hududidan o'tishi kabi holatlar bilan murakkablashadi.

Bugungi kunda xalqaro yoki milliy miqyosda transchegaraviy elektron tijorat sohasida vujudga keladigan munosabatlar uchun aniq, unifikatsiyalashgan, moddiy-huquqiy va kolliziyaviy-huquqiy normalar mavjud emas. Bundan tashqari, bu kabi munosabatlar bir vaqtning o'zida bir necha davlatlar huquqi (domen aloqasi, savdo (ekspluatatsiya) aloqasi, yashash yoki ro'yxatdan o'tish joyi bo'yicha) bilan bog'liqligi sababli ularni qaysi huquq normalari va yurisdiksiya bilan o'zaro bog'liqligini, nisbatan eng uzviy bog'liqligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi [8, 52-b.].

I. Rustambekov Internet tarmog'ida kollizion muammolarning eng optimal yechimi kollizion normalarni unifikatsiya qilish hamda erk muxtoriyati tamoyilini qo'llashdan iboratligini qayd etgan [9, 52-b.]. Biz ushbu fikrni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz.

Elektron tijorat sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni kolliziyaviy-huquqiy tartibga solish muammolari Xalqaro savdo palatasining (keyingi o'rinlarda XSP deb yuritiladi) muhokama markazidagi masalalardan hisoblanadi. Uning elektron tijorat sohasida moddiy-huquqiy qoidalarini ishlab chiqishdagi faolligi natijasida bir qator tavsiyalar ham qabul qilindi (ICC eTerms 2004. ICC Guide for eContracting, etc.) [10, 47-b.].

"Elektron biznes sohasidagi global harakatlar rejalari" [11], Transchegaraviy signallarni ushlab qonuniy tartibini maqbullashtirishda huquqiy yordam to'g'risidagi ikki tomonlama bitimlardan foydalanish siyosati [12]; Elektron tijoratga nisbatan yurisdiksiya va qo'llanadigan huquq masalalari bo'yicha siyosati [13] kabi hujjatlarda elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni kolliziyaviy-huquqiy tartibga solishda subyektlar tarkibi bo'yicha farqlashga alohida urg'u berilgan.

Bunda tijorat tashkilotlari, ya'ni yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlar – business to business (B2B), yuridik shaxs va jismoniy shaxs (iste'molchi) o'rtasidagi munosabatlarni – business to customer (B2C) va jismoniy shaxslar (foydalanuvchilar) o'rtasidagi munosabatlarni – customer to customer (C2C) kategoriyalariga bo'lib ifodalanadi.

XSP yondashuvini shakllantirishda V2V va V2S tarmoqlaridagi elektron tijoratda vositachilikni o'zida ifodalaydigan bitimlarni tartibga solishda asosiy kolliziyaviy bog'lovchilar sifatida shartnoma tuzilgan joy qonuni (lex loci contractus) va ushbu hujjat ijro etiladigan mamlakatning qonuni (locus regit actum) kollizion bog'lovchilar ilgari surilgan.

Ammo mazkur hujjatda yuqoridagi ikki kollizion bog'lovchi mazmunan mavhumroq ishlab chiqilgan va ko'pincha o'z-o'zini tartibga solish va "shartnoma tuzishda erk muxtoriyati" (shartnomani tuzish erkinligi – lex voluntatis) [14, 47-b.] yoki taraflarning erk muxtoriyati (party autonomy) prinsiplari bilan o'rnini almashgan holda ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligidagi kamchiliklardan biri sifatida zamonaviy bozor sharoitlarida talab etiladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalar va munosabatlarning alohida shakllari sifatida elektron tijorat, kriptovalyuta aylanmasi va boshqalarni tartibga solish nazarda tutilmaganligi [15] ham qo'yilganligini qayd etish zarur.

Umid qilamizki, ushbu masalalar yangi tahrirda qabul qilinayotgan Fuqarolik kodeksining Xalqaro xususiy huquq sohasidagi bobida o'z aksini topadi.

Xalqaro tajribada mazkur ko'tarilgan masalalarni hal qilish mexanizmlariga e'tibor qaratish zarur. Qayd etish lozimki, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat konsepsiyasi elektron savdo faoliyatining asoslari va savdo munosabatlarini kolliziyaviy-huquqiy tartibga solish umumiy tan olingan yondashuvlari (tomonlarda qo'llanadigan huquqni tanlash imkoni bo'lmagan taqdirda) "lex venditoris" – "sotuvchi mamlakatining huquqi" bog'lovchisi orqali o'zaro birikib, mazkur konsepsiya doirasida aniq kolliziyaviy-huquqiy yechim topiladi.

Doktrinada, shuningdek, Internetda vujudga keladigan munosabatlar o'ziga xosligi, ularning xilma-xilligi sababli tabiatan qat'iy kollizion bog'lovchilarni qo'llashdan voz kechish hamda maqbul yechim sifatida "tomonlarning xohish-irodasi avtonomiyasi" va kollizion bog'lovchining muayyan davlat hududi bilan haqiqiy aloqasini aniqlashga imkon beradigan "yaqin aloqa" mezonidan foydalanish tavsiya etiladi [16].

Xalqaro xususiy huquqda keng tarqalgan "taraf joylashgan joy qonuni", "bitim tuzilgan joy qonuni" va "zarar yetkazilgan joyi qonuni" bog'lovchilari Internet munosabatlarda boshqacharoq o'ringa ega bo'lib, maxsus kollizion bog'lovchilar bilan birgalikda qo'llanadi (masalan, "server joylashgan joy qonuni").

"Server joylashgan joy" [17] – bu aloqa tizimi (uskunalar va dasturiy ta'minot) joylashgan makon. Agar uskuna yoki unda joylashgan dasturiy ta'minot ma'lum bir shaxsning ixtiyorida bo'lsa va ularning yordami bilan Internetda yuridik oqibat tug'diradigan harakatlar amalga oshirilsa hamda "veb-server joylashuvi makoni" bog'lovchisi Internet munosabati ishirokchisi bo'lgan shaxsni aniqlash uchun foydalanilsa, uskunaning joylashuvi server joylashuvi joyiga mos keladi [18, 149-b.] deya qayd etilgan.

Biz yuqoridagi yondashuvni unchalik ham qo'llab-quvvatlamaymiz. Chunki, birinchi navbatda, Internetda vujudga keladigan va tatbiq etiladigan savdo munosabatlarini amalga oshirishning elektron usullari bu, avvalo, kolliziyaviy-huquqiy tartibga solishga bilvosita ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va bitim amalga oshiriladigan joy va ushbu munosabatlar subyektlarining milliy mansubligini aniqlash uchun hisobga olinishi zarur bo'lgan munosabatlarning shaklidir.

Jumladan, yuqorida ko'rsatilgan "server joylashgan mamlakat huquqi" yoki elektron xabarni jo'natuvchi yoki oluvchi mamlakati huquqi mustaqil ravishda idrok etilmasdan, faqatgina shartnomaviy savdo munosabatlarda bitimni amalga oshirish joyi va sotuvchi mamlakati huquqini aniqlashtirishi mumkin.

Elektron texnologiyalarning transchegaraviy savdo munosabatlari shakliga turli ko'rinishda ta'sir qilishi, doktrinada turli xil elektron shakllarda rasmiylashtiriladigan va eng avvalo, Internetda amalga oshiriladigan munosabatlarni o'zini o'zi tartibga solish tizimini rivojlanishiga olib keldi.

Bu yerda so'z *lex electronica* (informatica), konsepsiyasi haqida bormoqda. Uning kelib chiqishi Internetda tuzilgan bitimlar bo'yicha nizolarni hal qilishda yondashuvlarni unifikatsiya qilish zarurati bilan bog'liq. "*Lex electronica* (informatica) – bu transchegaraviy elektron tijorat huquqi bo'lib, uning ostida munosabatlar ishtirokchilari tomonidan o'zaro ichki foydalanish uchun o'rnatiladigan va hakamlar tomonidan ushbu munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda tomonlarning xohish-istaklarini hisobga olgan holda va elektron tijorat sohasining hozirgi holatini inobatga olib, qiyosiy huquqiy tahlil asosida qo'llanadigan elektron axborot muhitida transmilliy bitimlarni tuzish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquqiy tuzdagi normalar tizimi tushunilishi kerak" [19].

Bundan tashqari, xorijiy adabiyotlarda keltirilishicha, "*lex mercatoria*" hosilasi sifatida "*lex informatica*"ning rivojlanishini taraflar o'rtasida shartnoma tuzilayotgan paytda, arbitraj kelishuvida nizolarni onlayn arbitrajda hal qilish shartlarini kiritish zamonaviy ish muomalasi tusiga kirib bormoqda. Shu sababli bu tendensiyada Internet-biznesni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratilishi lozimligidan dalolatdir.

Ko'rinib turibdiki, "*lex informatica*" Internetda yuzaga keladigan barcha munosabatlarni bir davlat sudiga yurisdiksiyasida bo'lmagan tartibga solish tizimi sifatida qabul qilinadi. Bunda moddiy-huquqiy tartibga solish ham, protsessual jihatlar ham arbitraj kelishuvida qamrab olinadi.

Bunday qoida, masalan, elektron pochta orqali "e-mail" yozishmalar orqali shartnoma tuzilishi va obyektiv ravishda shartnoma bilan eng yaqin aloqani aks ettiradigan hollarda qo'llaniladi. Ko'rsatilgan mazmunda sotuvchi axborot tizimini joylashuvini aniqlashning texnik jihatlarini ochib beradigan huquqiy asos bo'lib, BMTning 2005-yil 23-noyabrdagi Xalqaro shartnomalarda elektron aloqadan foydalanish to'g'risidagi konvensiyasining qoidalari xizmat qilishi mumkin.

Bu holda, "*lex venditoris*" kolliziyaviy bog'lovchisi, ya'ni sotuvchi mamlakatining huquqi, taraflarda qo'llanadigan huquqni tashlash imkoniyati bo'lmaganda hamda shartnomada hal qiluvchi ijroni bajaruvchi tarafni aniqlash maqsadida, eng uzviy bog'liq bo'lgan mamlakat huquqini aniqlash maqsadida "*lex informatica*" konsepsiyasining bir qismi bo'lgan "*lex electronica*" kolliziyaviy bog'lovchisi orqali ochiladi.

Elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni kolliziyaviy-huquqiy tartibga solishning qayd etilgan modelini xalqaro shartnoma miqyosida mustahkamlash maqsadga muvofiq. Bu umumiy jihatdan, Internetda vujudga keladigan va elektron shakldagi axborotni aks ettirish va uzatish bilan mustahkamlangan munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalarining yechimini unifikatsiya qilar edi.

Agar provayder bir nechta joydan ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, xizmat aynan qaysi joyda ko'rsatilganligini aniqlash kerak. Agar buni aniqlashning iloji bo'lmasa, provayderning ta'sis etish joyi bo'lib provayderning professional xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq asosiy faoliyatini amalga oshiradigan joyi tushuniladi [20, 109-b.].

Elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni kolliziyaviy-huquqiy tartibga solish nuqtayi nazaridan alohida e'tibor bitim shakliga nisbatan qo'llaniladigan huquqni tanlashga qaratiladi. Uni aniqlash uchun bitimning Internetda tuzilgan joyi va boshqa elektron usullarda tuzilgan shakllarini, vositalarni tahlil qilish talab qilinadi [20, 109-b.].

Doktrinada ta'kidlanganidek, elektron bitimni amalga oshirish joyi etib jismoniy shaxsning turar

joyi yoki oferent bo'lgan yuridik shaxsning asosiy faoliyati joyi hisoblanishi kerak. Bir tomonlama Internet-bitim tuzish joyi, o'z navbatida, bu jismoniy shaxsning yashash joyi yoki bitimni amalga oshirgan yuridik shaxsning asosiy manzili hisoblanadi. Bu qoida YUNSITRALning 1996-yilgi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Namunali qonunida ham shunday aks ettirilgan [21, 23-b.].

Biroq eng keng tarqalgan qoidaga ko'ra, bitim shakli, odatda, taraflar tanlagan mamlakat huquqiga bo'ysunishi kerak, bunday tanlov imkoni bo'lmagandagina yuqoridagi bog'lovchilar qo'llaniladi. Jumladan, taraflar irodasi erkinligi asosida munosabatlarning formal maqomini tartibga solish xalqaro xususiylar huquqda ko'plab milliy kodekslarida (Avstriya, Turkiya, Ukraina, GFR) o'z aksini topgan.

AQSh elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni kolliziyaviy-huquqiy tartibga solish bir qator xususiyatlarga ega [22]. Jumladan, AQShning Internet-shartnomaviy munosabatlarni kolliziyaviy-huquqiy tartibga solishdagi yondashuvi huquqiy munosabat ishtirokchilarining qo'llanadigan huquqini erkin tanlashiga asoslanadi [23, 162-b.].

Biroq bunday tanlov imkoni mavjud bo'lmaganda yoki taraflar tanlagan huquq taraflardan biri bilan yoki shartnomaning o'zi bilan bog'liq bo'lmasa yoki uni tanlash uchun boshqa oqilona asos mavjud bo'lmasa, bunday hollarda bitim va uning taraflari bilan eng uzviy bog'liq bo'lgan shtat huquqi qo'llanilishi belgilangan. Mazkur kollizion normalar sudlarni shartnomani tuzish joyi, muzokaralar o'tkazish joyi, shartnomani bajarish joyi, shartnoma predmeti turgan joy, taraflar joylashgan manzil kabi holatlarni konkret vaziyatda ushbu omillarning har birining ahamiyatidan kelib chiqib, inobatga olishga majburlaydi [24].

Yevropa Ittifoqi tajribasi, o'z navbatida, shartnomaviy munosabatlarni kolliziyaviy huquqiy tartibga solishga nisbatan "klassik" va "elektron shartnomaviy munosabatlari"ga ajratmasdan tizimli yondashuvni namoyish etadi. Masalan, Yevropa Parlamenti va Kengashning 2008-yil 17-iyundagi 593/2008-sonli "Shartnomaviy majburiyatlarni nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risida"gi Reglamenti ("Rim I") taraflar qo'llanadigan huquqni tanlash imkoniga ega bo'lmagan hollarda va bunday tanlov to'g'ridan to'g'ri ish holatlaridan kelib chiqmaganda, sud qo'llanadigan

huquqni shartnomaga xos tarzda ijroni amalga oshiruvchi taraf huquqidan kelib chiqib belgilaydi, deb qayd etilgan [25, 6-b.].

Shartnoma Rim I Reglamenti 4-moddasida ko'rsatilgan holatlarga mos kelmasa yoki kelishuv aralash xarakterga ega bo'lsa, sudning o'zi qaysi turdagi shartnoma qoidalarini va bunday shartnomaga xos bo'lgan ijro usulini mustaqil aniqlashi hamda majburiyat bajarayotgan tarafning yashash joyi mamlakatining huquqini qo'llashi lozimligi qayd etilgan.

Elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni kolliziyaviy-huquqiy tartibga solish borasida O'zbekiston Respublikasi yondashuvi haqida so'z yuritganda, ta'kidlash kerakki, bizda shartnomaviy munosabatlarni kolliziyaviy huquqiy tartibga solish yuqorida muhokama qilingan YI yondashuviga o'xshash.

Asosiy kolliziyaviy prinsip – bu shartnoma taraflari tomonidan tanlangan huquq ustuvorligi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1189-moddasida shartnoma, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, taraflarning kelishuviga ko'ra tanlangan mamlakat huquqi bilan tartibga solinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi qisqa xulosalarni ilgari surish mumkin.

*Birinchi*, elektron tashqi savdo bitimlari o'z mazmuniga ko'ra chet element bilan murakkablashgan munosabatlar sanaladi. Mazkur munosabatlardan kelib chiqadigan har qanday nizolarni hal qilishda qo'llaniladigan huquqni aniqlash bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi mumkin.

*Ikkinchi*, elektron tashqi savdo bitimlarida chet el elementi ikki shaklda namoyon bo'ladi: elektron savdo munosabatlari taraflarining turli mamlakatlar hududida joylashganligi, ya'ni ikki davlat huquqi bilan shaxsiy qonunining belgilanishi; elektron tashqi savdo bitimi obyektining xoriy davlatda joylashganligi.

*Uchinchi*, elektron tashqi savdo bitimlaridan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soluvchi davlat huquqini tanlashdagi murakkablik shundaki, ushbu holatda axborot davlatlarning chegaralarini bir soniya ichida kesib o'tadi. Tashqi savdo bilan bog'liq ma'lumotlarga kirish turli mamlakatlar hududidan bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

*To'rtinchi*, transchegaraviy elektron tijorat sohasida yuzaga keladigan munosabatlar uchun,

ayniqsa, bir qator davlatlarning (domen aloqasi, savdo (operatsion) aloqasi, yashash joyidagi aloqa va h.k.) huquqi bilan bir vaqtning o'zida bunday munosabatlarni hisobga olgan holda, moddiy-huquqiy va kolliziyaviy-huquqiy normalarning aniq belgilanmaganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib yuqoridagi fikrlarni umumlashtirganda, elektron savdo sohasida yuzaga keladigan transchegaraviy munosabatlarning

texnologik xususiyatlarining yuqoridagi tahlilini inobatga olgan holda, bunday munosabatlarni kolliziyaviy-huquqiy tartibga solishni mavjud bo'lgan va klassik savdo faoliyatida foydalanadigan shartnomalarga nisbatan qo'llanadigan, keng tarqalgan kolliziyaviy bog'lovchilar orqali amalga oshirish lozim. Bunda, albatta, ma'lumotlarni uzatish va bevosita shartnomalar tuzishning elektron usullarining xususiyatlari hisobga olinadi.

## REFERENCES

1. Annual operating income of Amazon from 2014 to 2020, by segment. Available at: <https://www.statista.com/statistics/241835/amazon-operating-income-annual-by-segment/#statisticContainer/>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis]. Xalq so'zi – People's Speech, January 25, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami [Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan]. 2015, no. 49.
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi [National Legislative Database]. 15.05.2018, no. 07/18/3724/1261, 31.10.2018, no. 06/18/5564/2137, 09.11.2019, no. 06/19/5870/4010.
5. Frendo M. Legal aspects of e-commerce. Law technology, 1999, no. 32 (4), p. 1.
6. Kelman M.C.A., Chissick M. Electronic commerce law and practice. SWEET & Maxwell, 1999, p. 4.
7. Henderson K., Poulter A. The distance selling directive: points for future revision. International Review of Law, Computers & Technology, 2002, no. 16 (3), pp. 289-300.
8. Gillies L.E. Electronic commerce and international private law: A study of electronic consumer contracts. Routledge, 2016, p. 52.
9. Rustambekov I.R. Internet tarmog'ida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish. 12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq ixtisosligi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati [Regulation of civil relations on the Internet. 12.00.03 – Civil law. Business law. Family law. Abstract of doctoral dissertation in International Private Law]. Tashkent, 2017, p. 31.
10. Minenkova N.V. Mejdunarodno-pravovoe i natsionalnopravovoe regulirovanie elektronnoy trgovli. Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk [International legal and national legal regulation of electronic commerce. Dissertation for the degree of candidate of legal sciences]. Moscow, 2008, p. 47.
11. ICC. A Global Action Plan for Electronic Business. Prepared by Business with Recommendation for Governments. 3<sup>rd</sup> Edition.
12. ICC policy statement on Using Mutual Legal Assistance Treaties (MLATs) To Improve Cross-Border Lawful Intercept Procedures, 2014.
13. ICC. Policy statement. Jurisdiction and applicable law in electronic commerce. Electronic Commerce Project (ECP)'s Ad hoc Task Force, 6 June 2001. Available at: <http://www.iccwbo.org/>.
14. Minenkova N.V. Mejdunarodno-pravovoe i natsionalnopravovoe regulirovanie elektronnoy trgovli. Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk [International legal and national legal regulation of electronic commerce. Dissertation for the degree of candidate of legal sciences]. Moscow, 2008, p. 47.
15. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi [National Legislative Database]. 06.04.2019, no. 08/19/5464/2891.
16. Kazachenok S.Y. Razvitie lex electronica kak predposylka vklyucheniya v arbitrajnoe soglasenie usloviya ob onlaynarbitraje [Development of Lex electronics as a prerequisite for the inclusion of the online arbitration clause in the arbitration agreement]. Available at: <http://otrasli-prava.rf/article/987/> (accessed 31.07.2015).
17. Journal officiel de l'Union europeenne L 177 du 4.7.2008, p. 6; Official Journal of the European Union L 177, 4.7.2008, p. 6.

18. Getman-Pavlova I.V. Mejdunarodnoe chastnoe pravo. Uchebnik. 3-ye izd., pererab. i dop. [International private law. Textbook. 3rd ed., rev. and add.]. Moscow, Eksmo, 2011, pp. 149–159.
19. Patrikios A. Resolution of Cross-border E-Business Disputes by Arbitration Tribunals on the Basis of Transnational Substantive Rules of Law and E-business Usages: The Emergence of the Lex Informatica. 21st BILETA Conference: Globalisation and Harmonisation in Technology Law. April 2006, Malta. British & Irish Law, Education and Technology Association.
20. Bar-Gill O., Ben-Shahar B. Regulatory techniques in consumer protection: a critique of European consumer contract law. *Common Market L. Rev.*, 2013, no. 50, p. 109.
21. Albornoz M.M. Choice of law in international contracts in Latin American legal systems. *Journal of Private International Law*, 2010, no. 6 (1), pp. 23–58.
22. AQSh Yagona Savdo Kodeksida va Kolliziyaviy huquq normalari Ikkinchi to'plamida [In the U.S. Unified Commercial Code and the Second Collection of Conflict of Laws]. *Restatement on Conflict of Laws*.
23. Monsenepwo J. Contribution of the Hague principles on choice of law in international commercial contracts to the codification of party autonomy under OHADA law. *Journal of private international law*, 2019, no. 15 (1), pp. 162–185.
24. Savelev A.I. Elektronnyaya kommersiya v Rossii i za rubezhom: pravovoe regulirovanie [Electronic commerce in Russia and abroad: legal regulation]. *Statut*, 2014, SPS Konsultant plus.
25. Filimonov K.V. Pravovoe regulirovanie formi dogovora v elektronnoy kommersii [Legal regulation of the form of the contract in e-commerce]. *Yurist*, 2007, no. 12. SPS Konsultant plus.
26. *Journal officiel de l'Union européenne* [Official Journal of the European Union]. L 177 du 4.7. 2008, p. 6.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

**MAXSUS SON / 2021**

**II QISM**

**BOSH MUHARRIR:**

**Nodirbek Salayev**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i

**Mas'ul muharrir:** D. Xudonazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,  
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.